

“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya HIKOYA JANRINI O‘QITISHNING ZAMONAVIY USULLARI

Ro‘zimova Saboxon Baxtiyor qizi

*Ajiniyoz nomidagi Nukus DPI O‘zbek tili
va adabiyoti yo‘nalishi talabasi*

Annotatsiya. *Mazkur maqolada hikoya janrining ahamiyati hamda uni o‘qitishning bir qancha zamonaviy usullari haqida so‘z yuritiladi. Zamonaviy usulda o‘qitishning samaradorligi bayon qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *zamonaviy ta’lim, interfaol usul, mustaqil fikrlash, virtual xona, audio matn, videorolik.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается значение повествовательного жанра и некоторые современные методы его преподавания. Описана эффективность обучения современным способом.*

Ключевые слова: *современное образование, интерактивный метод, осамостоятельное мышление, виртуальная комната, аудиотекст, видео.*

Annotation. *This article discusses the importance of the narrative genre and some modern methods of teaching it. The effectiveness of teaching in a modern way is described.*

Key words: *modern education, interactive method, independent thinking, virtual room, audio text, video.*

Bugungi kunda adabiyot ta’limi inson kamolotga erishish yo‘lida asosiy xizmat qiluvchi bo‘g‘inlardan biri hisoblanib, uni o‘qitish va o‘rgatishda yangicha zamonaviy usullardan foydalanish katta ahamiyat kasb etadi. Binobarin, Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek: “Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo‘lib kamolga yetishi bilan bog‘liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o‘z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat” [1]. Shu jihatdan olib qaraganda, badiiy adabiyot inson ruhiyati, uning shaxs bo‘lib shakllanishi va rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Aslida adabiyot fanining mazmuni: o‘quvchilarning mustaqil fikrlash salohiyatini, aqliy tarafdin rivojlanishini, mantiqiy tafakkurini o‘stirish, borliqni badiiy ifoda vositalari yordamida anglab olishiga hamda fikri, ichki his-tuyg‘ularini chiroyli, ravon bayon eta olishga o‘rgatishdir [2.58].

Bugungi davrda adabiyot darsliklarida keltirilgan hikoyalar o‘quvchilarni mustaqil izlanishga, tahlil qilishga, o‘z dunyoqarashidan kelib chiqib xulosalar berishga o‘rgatadi. Hikoya janrini zamonaviy usullar bilan o‘rgatishda virtual xona yaratishga alohida e‘tibor qaratish lozim. Virtual xona deganda elektron doska, turli taqdimotlar uchun proyektorning bo‘lishi, audio va video materiallarni qo‘yishning imkoniyati mavjud bo‘lishi tushuniladi. Dars davomida o‘quvchilarga qulaylik yaratish uchun hikoyalarning mavjud audio variantlari qo‘yib eshittirilsa, o‘quvchilarda qahramonlarni ko‘z oldiga keltirish, ularni tasavvur qilish qobiliyatlarini

“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

shakllanadi [3.74]. Adabiyot darslarida hikoya janrini o‘qitishda zamonaviy usullardan bemalol foydalana olamiz. Dasturda ta’lim uchun yigirmadan oshiq turli variantlar keltirilgan. zipGrade dasturi adabiyot darsida juda qo‘l keladi. Ayniqsa, hikoya janri bo‘yicha o‘tkaziladigan takrorlash darslariga juda ham mos. U testlar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, o‘qituvchiga dars davomida qulaylik yaratadi. Ma’lumki, test olish va bilimni nazorat qilish uchun test topshiriqlarni qo‘lda tayyorlash, natijalarni bitta-bittalab tekshirish ko‘p vaqt talab qiladi. Ammo bu dastur yordamida o‘qituvchi vaqtdan unumli foydalanishi va o‘quvchilar uchun ham bu ta’lim jarayonidagi yangilik bo‘la olishi mumkin. O‘quvchilar o‘z javob varaqalarini shunchaki o‘qituvchisiga qarata to‘g‘ri ko‘tarishadi, o‘qituvchi esa uni smartfoni bilan skanerlaydi. Natijada to‘g‘ri va noto‘g‘ri javoblar avtomatik ravishda ko‘rinadi. Hikoya janrini zamonaviy usullar asosida o‘rgatishda google docs ham yaxshi yordamchi bo‘lishi mumkin. Google docs – foydalanuvchilarga onlayn hujjatlarni yaratish va hamjihatlikda tahrir qilish imkonini beruvchi dastur. Adabiyot o‘qituvchisi undan darsda foydalanishi uchun oldindan tayyorgarlik ko‘rishi lozim. Dastlab, elektron pochta orqali paneldan yangi sahifa yaratiladi. Yaratilgan sahifa Microsoft Word dasturiga o‘xshab ketadi. Undan so‘ng hujjatga dars mavzusidan kelib chiqib nom beriladi. Hujjat tayyor bo‘lgach, “Ulashish” bo‘limi yoki elektron pochta orqali o‘quvchilarni qo‘shish mumkin. Misol uchun, bu dasturni 7-sinf adabiyot darsligida keltirilgan “Ota” hikoyasiga moslashtirishimiz ham mumkin. Ushbu hikoya Nabi Jaloliddin qalamiga mansub bo‘lib, hikoyada halol, diyonatli, o‘z jonini boshqalar hayoti uchun fido qilishga ham shay bo‘lgan haqiqiy otalar haqida so‘z yuritiladi. Google docs yordamida ushbu darsni o‘zgacha uslubda tashkillashtirish mumkin. Google docs dasturining bir afzallik jihati borki, bir o‘quvchi yozgan ma’lumotni qolganlar kuzatishi mumkin. Undan tashqari fikr yozilayotgan vaqtda har bir o‘quvchining ismi va familiyasi ko‘rinib turadi.

7-sinf adabiyot darsligida “Ota” hikoyasiga jami 3 soat ajratilgan bo‘lib, 24, 25, 26-darslarni tashkil etadi. Adabiyot darsida o‘quvchilarga google docsda “Ota” hikoyasidan qanday taassurot oldingiz? Ota obraziga besh so‘zdan kam bo‘lmagan holda ta’rif yozing va shunga o‘xshash topshiriqlar berish orqali ham ularning hikoyani qay darajada o‘zlashtirganliklarini, shaxsiy xulosalarini bilib olishimiz va shu bilan birgalikda, imloviy savodxonligini ham tekshirishimiz mumkin. Chunki har bir o‘quvchi o‘z dunyoqarashidan kelib chiqib, so‘z tanlaydi. Darsning bu shaklda o‘tkazilishi an’anaviy darslarga qaraganda bir muncha qiziqarli va samarali bo‘lishini ta’minlaydi. Ammo bu jarayonni tashkil etish uchun ba’zi maktablarda yetarlicha sharoit bo‘lmasligi mumkin. Shunday holatlarda vaziyatni hisobga olgan holda google docsda o‘xshash boshqacha usulni qo‘llash maqsadga muvofiqdir. O‘qituvchi

“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

dars davomida o‘quvchilarning google docsga yozgan fikrlarini to‘g‘ri yo‘naltirib borishi, dars yakunida esa eng yaxshi izoh yozgan uchta yoki beshta o‘quvchini rag‘batlantirishi mumkin. Boshqa o‘quvchilar esa, shubhasiz, keyingi safar yetakchi o‘rin sohibi bo‘lish uchun harakat qilishadi, o‘z ustida ishlashadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqidan.
2. Mirqosimova M. O‘quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish. – T.: Fan. 2006.
3. Qambarova S. Adabiyot fanini o‘qitishda virtual laboratoriya tashkil etish masalalari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2016.